# O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

# XABARLARI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR YO‘NALISHI

# O‘zMU XABARLARI
# ВЕСТНИК НУУз
# ACTA NUUz

## MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL 1997 YILDAN CHIQA BOSHLAGAN**

**2023**
**1/7/1**

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi**

Bosh muharrir:
**I.U.MADJIDOV** – t.f.d., professor.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
**Y.S.ERGASHOV** – f-m.f.d., professor.
Tahrir hay’ati:
**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.
**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.
**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.
**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.
**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.
**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.
**Mo‘minov A.G.** – s.f.d., prof.
**Nishonova O.J.** – f.f.d., prof.
**Abdullayeva N.B.** – f.f.d., prof.
**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.
**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.
**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.
**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.
**Boltaboyev H.** – fil.f.d., prof.
**Rahmonov N.A.** – fil.f.d., prof.
**Shirinova R.X.** – fil.f.d., prof.
**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.
**Sa’dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.
**Kurbonova G.S.** – fil.f.d., dots.
**Djafarova D.I.** – fil.f.d., dots.
**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.
**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., PhD.

Mas’ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

**TOSHKENT – 2023**

## MUNDARIJA

### Tarix


**Adilov F.** Sovetlar davrida O‘zbekiston va Ozarboyjon respublikalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ilmiy tadqiqotlarda yoritilishi ........ 4
**Amonova F.** Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari ........ 6
**Isakova M.** O‘zbekistonda gilamchilik soxasi rivojida xotin-qizlarning o‘rni ........ 9
**Mirzoyev Sh.** 1950-1955 yillar O‘zbekiston suv xo‘jaligi organlari faoliyati (Buxoro oblasti misolida) ........ 12
**Nasriddinova N.** Surxon vohasida baxshichilik san’atining shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari ........ 16
**Odilov B.** O‘zbek xalqining an’anaviy dehqonchilik xo‘jaligining o‘rganilish masalasi (XIX asr oxiri –XX asr boshlari) 19
**Radjabov O.** Mustaqillik yillarida Turkmanistonda temir yo‘llarning holati ........ 22
**Saidboboyeva G.** Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida elektrlashtirish va goerlo rejasi ........ 25


### Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunos


**Абдулхаев А.** Философско – теоретические основы формирования готовности служения отечеству и патриотизма ........ 28
**Abduraxmanova D.** Qo‘shiqlarni kommunikativ asoslar bo‘yicha tasniflash ........ 31
**Abdiraxmanov A.** Matematik masalalar yechish va teoremalarni isbotlashda analitik metodni o‘rni ........ 34
**Avilova X.** Asliyatdagi matnlar asosida o‘qish ko‘nikmasini takomillashtirishning qiyinchilik va imkoniyatlari ........ 37
**Azimov M.** Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaliyotga joriy etishda “Tarbiyachi imidji”ni yaratish ........ 41
**Azimova S.** Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy-axloqiy sifatini rivojlantirish mexanizimlari va pedagogik modeli ........ 44
**Alimardanova R.** Mamlakatimizda oila masalalariga respublikamizning psixolog olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar ........ 47
**Allayev Z.** Critical reading strategies ........ 50
**Atabayeva M.** O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursida “Ichki suvlari va suv boyliklari” mavzusini interfaol o‘rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati ........ 53
**Атаева Р.** Педагогическое общение как одна из эффективных форм взаимодействия педагога с курсантами ........ 56
**Atavullayev M.** O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar: falsafiy-huquqiy tahlil ........ 59
**Ahrorova S.** Ahmad Yassaviy hikmatlarining diniy va falsafiy talqini ........ 61
**Babayeva M.** Bo‘lajak muhandislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda amaliy masalalarning o‘rni ........ 63
**Bekchanov X.** Talabalarda hayotiy muammolarni hal etishda koping strategiyalardan foydalanishning ahamiyati ........ 65
**Bozorbayev J.** Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda masofaviy ta’limning ahamiyati ........ 68
**Djurayev D.** Talabalarning tarmoq texnologiyalariga oid kompetentligini virtual ta’lim texnologiyalari yordamida rivojlantirishda tayaniladigan tamoyillar ........ 70
**Dilmuradov Sh.** Yuqori malakali bokschilarning texnik-taktik tayyorgarlik usullarini takomillashtirish ........ 74
**Doniyorova Sh.** Oliy ta’lim talabalarining xalqarolashuvida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish........ 76
**Jabborova D.** Effective principles and approaches to the development of students' professional communicative competence ........ 79
**Jumaqulov A.** Erkin kurashchilarning qisqa muddatli shiddat bilan bajariladigan ish qobiliyatiga katta yuklamali ishlarni bajarish ko‘rsatkichlarini ta’siri ........ 82
**Закирова Ф., Каримова В., Адашбаев Ш.** Цифровые компетенции педагогических и руководящих кадров ВУЗов: ключ к успешному развитию высшего образования ........ 86
**Izbosarova Z.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarining psixologik va pedagogik asoslari ........ 89
**Inagamova U.** The use of internet technologies in modern education ........ 92
**Kosimova F., Xasanboyeva N.** Language teaching methodologies in primary schools ........ 95
**Кузиев Н.** Социально-философский анализ становления и направлений великого шелкового пути и социальная значимость современных концепций возрождения шелкового пути ........ 98
**Qozaqova M.** Muhandislik yo‘nalishi talabalariga “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda loyihalash kompetensiyalarini rivojlartirishdagi vazifalar ........ 101
**Quvvatova Z.** O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati va temperament o‘rtasidagi bog‘liqlik ........ 105
**Majidov S.** Ijtimoiy konfliktlar va ularning ijtimoiy-falsafiy talqini ........ 108
**Maxmudov A.** 13-14 yoshli futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash natijalarini tahlil qilish ........ 111
**Mahmudova N.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini o‘stirishda o‘qish savodxonligining ahamiyati ........ 114
**Miraxmedov F.** Tennisga o‘rgatishda psixologik tayyorgarlikning ahamiyati ........ 117
**Nazarqulova G.** Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtiruvchi omillar ........ 119
**Nazarov R.** Texnik oliy ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi (ingliz tili fani misolida) ........ 122
**Nurmaxmatov L.** Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni tashkil etish omilllari ........ 125
**Nurumbekova Y.** Kouching texnikasi yordamida maqsadga erishish yo‘llari ........ 128
**Ochilov X.** “Davlat – inson uchun” tamoyilini amalga oshirishda davlat fuqarolik xizmatchisining burch va masuliyati 131
**Payanova F.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab rivojlantirish........ 134
**Позилова Ш.** Научно-методический анализ развития профессиональной креативности преподавателей профессионального образования ........ 137
**Primov M.** «Yashil» iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va uni rivojlantirishdagi ijtimoiy va falsafiy jihatlari ........ 141
**Пўлатов Л.** Особенности подготовки гребцов на Байдарках и Каноэ на этапе спортивного совершенствования . 145

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/7]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:867.9(876.2)

***Dilfuza NARZULLAYEVA,***
*Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: d.b.narzullayeva@buxdu.uz https://orcid.org/0009-0007-7700-9301*

*BuxDU dotsenti, PhD M.Akhmedova taqrizi asosida*

# “QUR’ONI KARIM”DA RUHIY HOLATNI BELGILOVCHI NUTQIY KONFIGURATSIYALAR

Annotatsiya
Maqolada “Qur'oni Karim” kitobidagi ruhiy holatni belgilovchi nutqiy hosilalarga e’tibor qaratilib, ularning ayrim bir neyropsixolingvistik xususiyatlari o’rganilgan. Unda islomiy-irfoniy tushunchalarning inson ruhiyatiga ta’siri, tinchlantirish va sokinlik alomatlari borligi asoslab ko’rsatilgan.
**Kalit so‘zlar:** Nutqiy konfiguratsiya, ruhiy holat, nutqiy hosila, neyropsixolingvistik xususiyat, islomiy-irfoniy tushuncha, inson ruhiyat, nutq, til, madaniyat, ong, xulq-atvor, zikr, kognitiv tuyg’u.

## SPEECH CONFIGURATION DETERMINING MOOD IN “QUR’AN KARIM”

Abstract
The article focuses on the speech derivatives that determine the mental state in the book "Holy Qur'an" and some of their neuropsycholinguistic features are studied. It shows the influence of Islamic-mystical concepts on the human psyche, the signs of calming and tranquility.
**Key words:** Speech configuration, mental state, speech derivative, neuropsychological feature, Islamic-mystical concept, human psyche, speech, language, culture, consciousness, behavior, zikr, cognitive feeling.

## РЕЧЕВАЯ КОНФИГУРАЦИЯ, ОПРЕДЕЛЯЮЩАЯ НАСТРОЕНИЕ В “КОРАНЕ КАРИМ”

Аннотация
В статье акцентируется внимание на речевых производных, определяющих психическое состояние в книге «Священный Коран», и изучаются некоторые их нейропсихолингвистические особенности. Показано влияние исламско-мистических представлений на психику человека, признаки успокоения и умиротворения.
**Ключевые слова:** Речевая конфигурация, психическое состояние, речевая производная, нейропсихологическая особенность, исламо-мистическая концепция, психика человека, речь, язык, культура, сознание, поведение, зикр, познавательное чувство.

**Kirish** Globallashuv asrida lingvistik shaxsning jamiyat bilan bo‘lgan munosabati avvalambor, uning nutqiy faoliyatiga e’tibordan boshlanadi, ya’ni har bir kadrni malakali mutaxassis bo‘lib yetishishida ritorika fanining o‘rni beqiyos. Shu sababli bu fanning sir-asrorlarini o‘rganish insonda notiqlik san’ati qoidalarini va nutq san’atining go‘zal hatti-harakatlar bilan uyg‘unlashtiruvchi lingvistik sohalardan biridir. Zero, agar insonlararo munosabat ijobiy tus olsa, jamiyat va shaxs ravnaqi muvaffaqiyatli kechadi. Albatta, chiroyli muomala sof qalb, go‘zal xulq-atvorni ta’minlamaydi. Buning uchun har bir insonning ichki olamini rivojlantirish, unga yuksak insoniy sifatlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy ishlar majmuasidan foydalanish zarurdir. “Qur’oni Karim” shu maqsadni amalga oshirishda amaliy yordam beradi. “Qur’oni Karim”ni musulmonning muomalasi xulq-atvorining ko‘zgusi, - deyish mumkin. Boz ustiga yaxshi qiroat qilingan “Qur’on Karim”dan inson ruhiyatiga nur yog’ilgandek bo’ladi. Ruhiyati tetiklashadi, Allohning najotkorlik xususiyatlariga aqlan oshufta bo’ladi. Shunday ekan, lingvistik shaxsning har bir ishida qalb go‘zalligi, salim tuyg‘ulari, yuksak diniy va dunyoviy g‘oyasi hamda nutq madaniyati yorqin ko‘rinib turishi lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Til va nutq bir-biriga bog‘liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, Til - bu qurol bo’lsa, nutq shu qurolning o’qidir. Shu sababli Alisher Navoiy ham o‘zining "Mahbub-ul-qulub" asarida tilga shunday baho beradi: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.” Til nutq uchun moddiy materialdir, biroq Ferdinand de Sosyur ta’limotiga asosan ular bir-biridan keskin farqli hisoblanadi⌈1, 3⌋. Til kishilarga doimo o‘zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma’naviy zaruriyat, jamoa bo‘lib birlashish, kurashish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Til insonlar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib, jamiyat a’zolarining bir-biri bilan fikr almashuviga xizmat qiladi. Til o‘zida behisob tushunchalarni mujassamlashtiradi. Til butun jamiyat a’zolarining ongli hayot kechirishi, his-tuyg‘ularini ifoda etishi, kurashish va rivojlanishida o‘ziga xos benazirligi va buyukligi bilan ajralib turadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo‘lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad - tinglovchi ongiga ta’sir etish vazifa qilib qo‘yiladi. Shuning uchun ham ta’sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi [3]. Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan og‘zaki nutq jarayonida axborotning inson ruhiyatiga sezilarli darajadagi semantik kuchi nazarda tutiladi. Ruhiy holatlar tizimli hodisalar bo‘lganligi sababli, ularni tasniflashdan oldin ushbu tizimning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash kerak. Ruhiy holat tuzilishi quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi:

Birinchidan, nutq konfiguratsiyasi tizimni tashkil etuvchi omil uchun muayyan ruhiy holatni ifodalab beruvchi haqiqiy ehtiyoj hisoblanadi. Tashqi muhit sharoitlari (quvonch, ilhom, zavq va boshqalar.) ehtiyojni tez va oson qondirishga yordam bersa, bu ijobiy holatning paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, nutq konfiguratsiyasida psixologik holatlar muvozanatsiz ravishda namoyon bo’ladi, ya’ni ular emotsional jihatdan o’zgaruvchandir. Yoki qoniqish ehtimoli past yoki umuman yo‘q bo‘lsa, u holda ruhiy holat hissiy belgi nuqtai nazaridan salbiy holat yuzaga keladi [4]. A. O. Proxorovning fikricha, dastlab ko‘plab psixologik holatlar muvozanatsiz bo‘lib, yetishmayotgan ma’lumotni olgandan yoki kerakli resurslarni olgandan keyingina ular statik holatga keladi.

Uchinchidan, nutq konfiguratsiyasi dastlabki davrida holat shakllanishining eng kuchli tomoni qalqib ko’rinadi – yuqori darajadagi his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Bu favqulodda ehtiyojni amalga oshirish jarayoniga o‘z munosabatini bildiruvchi shaxsning subyektiv reaksiyalari sifatida gavdalanadi. Yangi barqaror holatning tabiatida “maqsadni belgilash bloki” muhim rol o‘ynaydi, bu ehtiyojni qondirish ehtimolini ham, kelajakdagi harakatlar xarakterini ham belgilaydi

Xotirada saqlangan ma’lumotlarga qarab, umidlar, munosabatlar, his-tuyg‘ular va « idrok filtrlari »ni o‘z ichiga olgan holatning psixologik tarkibiy qismi shakllanadi [5]. Tegishli « filtrlar » o‘rnatilgandan so‘ng, tashqi dunyoning obyektiv xususiyatlari allaqachon ongga ancha zaif ta’sir ko‘rsatishi mumkin va asosiy rolni munosabat, e’tiqod va g‘oyalar egallaydi. Masalan, sevgi holatida mehr ob’ekti ideal va kamchiliklardan xoli bo‘lib ko‘rinadi va g‘azab holatida boshqa odam faqat « qora rang »da idrok qilinadi va mantiqiy dalillar bu holatlarga juda kam ta’sir qiladi. Agar ijtimoiy obyekt ehtiyojni amalga oshirishda ishtirok etsa, unda his-tuyg‘ularda idrok sub’ekti asosiy rol o‘ynaydi. Unda subyekt ham, obyekt ham his-tuyg‘ular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kuchli his-tuyg‘ular (rashk, hasad tuyg‘ulari, qasos, sevgi) bilan ikkinchi shaxs ongida shaxsning o‘zidan ham ko‘proq joy egallashi mumkin[6]. Tashqi obyektlar yoki ijtimoiy obyektlar bilan muayyan harakatlarni amalga oshirgandan so‘ng, odam qandaydir bir qarorga keladi. Bu qaror yoki holatga sabab bo‘lgan birlamchi ehtiyojni tushunish (rad etilish) ga imkon beradi yoki yo’q. Bunday holda, yangi holat— umidsizlik, tajovuz va boshqalar paydo bo‘ladi. Unda inson yangi resurslarni topadi, bu esa ushbu ehtiyojni qondirish uchun yangi imkoniyatlarni anglatadi [7]. Agar natija salbiy bo‘lishda davom etsa, ruhiy holatlarning kuchlanishini kamaytiradigan va surunkali stress ehtimolini kamaytiradigan psixologik himoya mexanizmlari faollashadi.

**Tahlil va natijalar.** Ruhiy holatlarni tasniflashning qiyinligi shundaki, ular tez-tez kesishadi yoki hatto bir-biriga mos keladi, shuning uchun ularni „ajratish“ juda qiyin — masalan, qandaydir taranglik holati ko‘pincha charchoq, monotonlik holatlari fonida paydo bo‘ladi[8]. Biroq, ularni tasniflashning ko‘plab variantlari mavjud. Ko‘pincha ular hissiy, kognitiv, motivatsion, ixtiyoriy turlarga bo‘linadi. Psixikaning asosiy integratorlari (shaxs, intellekt, ong) faoliyatining hozirgi xususiyatlarini umumlashtirganda, shaxs holati, intellekt holati, ong holati atamalari qo‘llaniladi. Juda ham ko’p ruhiy holatlarni nutq konfiguratsiyasi keltirib chiqaradi [9]. Chunonchi, “Qur’oni Karim”da ifodalangan holatlar shundan dalolatdir. Quyida so’zlarimiz tasdig’i sifatida “Qur’oni Karim” kitobidan bir necha oyatlardan misollar keltiramiz: “Ey imon keltirganlar, fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko‘ring. Birovga bilmasdan aziyat yetkazib keyin pushaymon bo‘lasiz” (Hujurot surasi 6-oyat 516 bet)[2].

Mazkur oyatda murojaat mazmuniga ega bo’lgan “Ey imon keltirganlar” bosh jumlasi semantik-funksional shakllangan fraza shaklida nutq konfiguratsiyasining markaziga chiqarilgan. Kengaygan kirish undalmali “Ey imon keltirganlar” gapida undalma vazifasidagi “Ey imon keltirganlar” so’z birikmasi bilan kengaygan. “Iymon keltirganlar” o’rnida “musulmonlar” so’zini almashtirish mumkin. Biroq agar “Ey imon keltirganlar” nutq konfiguratsiyasi bilan “Ey musulmonlar” almashtirilganda nutqning ta’sirchanligi, bizning nazarimizda, passayishi mumkin bo’lardi. Unda “fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko‘ring” to’liq shakllangan gapning to’liq ma’noviy tuzulishiga putur yetgan bo’lardi. Chunonchi, “Ey musulmonlar, fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko‘ring” dan ko’ra “Ey imon keltirganlar, fosiq kimsa xabar keltirsa surishtirib ko‘ring” gapida ma’noviy butunlik va uslubiy aloqadorlik mavjud va juda kuchli. Zero, nutq uslibiyoti nuqtai nazaridan “musulmon” deb murojaat qilganda nutq neytral mazmun kasb etadi, “Ey imon keltirganlar”da esa imonning ibodat jarayoniga kirilgani, iymonda sodiqlik, ibodatga tobelik kabi ma’nolar majmui anglashiladi. Bosh gap ergashgan gapni o’ziga ma’noviy tobelantirib, musulmonlarni hushyorlikka, fisq-fasodga aql bilan qarshi turishga da’vat qilishga undaydi va ma’no uyg’unligini ta’minlaydi.

Endi “Alloh shunday zotki, shamol yuborib bulutni haydaydi. Uni osmonda o‘zi xohlagandek tarqatib pag‘a-pag‘a qiladi. Undan keyin orasidan yomg‘ir chiqishini ko‘rasan. Yomg‘irdan bahramand bo‘lgan bandalarning sevinchi ichiga sig‘maydi” (Rum surasi 48-oyat 409 bet) surasi tarjimasiga murojaat qilamiz.

“Alloh shunday zotki” semantik-funksional nutqiy konfiguratsiyada ta’kid va ogohlantirish ma’nosi kuchli ifodalangan. “Shamol yuborib bulutni haydaydi” gapidagi ishontirish vazifasi ta’kid va ogohlantirish ma’nosini ifodalagan “Alloh shunday zotki” orqali har ikki gapga yuklatilgan. “Undan keyin orasidan yomg‘ir chiqishini ko‘rasan. Yomg‘irdan bahramand bo‘lgan bandalarning sevinchi ichiga sig‘maydi”gaplari kontekstdagi mukammal fikrni yuzaga chiqishi va “Alloh shunday zotki”- Allohning qudrati va karomatiga ishontirishni ta’minlagan.

Shuningdek, «Ey insonlar! Albatta, Allohning va’dasi haqdir. Bas, sizlarni dunyo hayoti sira aldab qo‘ymasin! Yana sizlarni aldamchi (shayton) aldab qo‘ymasin!» (Fotir, 5)4; «Bas, Meni yod etingiz, (Men ham) sizlarni yod eturman. Menga shukr qilingiz, noshukrchilik qilmangiz! » (Baqara, 152)5; «Yana Rabbingiz e’lon qilgan (bu so‘zlar)ni eslangiz: «Qasamki, agar (bergan ne’matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman» (Ibrohim,7) gaplarida ham nutqiy konfiguratsiyalarni uchratish mumkin.

Qur’oni Karim”da «Ey insonlar!” «Bas”, «Qasamki” kabi nutqiy hosilalar juda ham ko’p uchraydi. Undagi inson fikrini, zikrini, sa’i-harakatini ifodalaydigan nutqiy konfiguratsiyalarni o’rganar ekanmiz, musulmonning « qiyomat”gacha tizimli dasturi amal bo‘lgan Alloh taoloning hikmatlariga ishonchimiz orta boradi. Qur’ondagi nutqiy konfiguratsiyalarning yuzaga chiqishiga ko’ra unda ifodalangan leksemalarning tahliliga e’tibor beramiz: (1-rasm)



Qur’on – hikmatlar manbai ekanligi, u odamlar tomonidan tushunilishi, tushunganda ham osonlik bilan tushunilishi uchun arab tilida yuborilganligi bildirilgan: "Alif, Lom, Ro. Bular ochiq-ravshan Kitob oyatlaridir. Darhaqiqat, biz uni anglaysiz deya Qur’onni arab tilida tushirdik" (12-sura, 1-2-oyatlar). Alif, Lom, Ro ham o’ziga xos nutqiy konfiguratsiya hisoblanadi. Ramziy harfiy belgilar aniq oyatlarning nutqiy konfigurativ shakllari ekanligi ma’lum [10, 58-63]. Oyatdan ochiq-ravshan bilib turibdiki, Qur’on koinotning butun sirlarini qamrab olgan ishora va lingvistik belgilar kitobidir. Ya’ni ilmiy ma’noda jamiki ma’lumotlarni bir yerga to‘plagan bilimlar xazinasidir. Bu bilim xazinasidagi hikmatlarni shartli belgi va harflarning ifodasidan shunchaki anglay olishimiz oson ish emas.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, “Qur'oni Karim” kitobidagi ruhiy holatni belgilovchi nutqiy hosilalarga e’tibor qaratish, ularning neyropsixolingvistik xususiyatlarini o’rganish dunyoviy va islomiy-irfoniy tushunchalarning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Oyatlarning inson ruhiyatiga ta’sirini oshirishda, lingvistik shaxsning ruhiy holatini aniqlashtirishga, uni tinchlantirish, sabr-qanoat, fikr uyg’unligi, oxirat tushunchalarini tushuntirishga va musulmonchilikda salimlik, halimlik, sokinlik va fahmiy bilish alomatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR


1. Azizxo‘ja Inoyatov, G‘ani Zikrillaev, «Qur’oni Karim oyatlari mazmun-ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi» , «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022-yil, 516-bet
2. Azizxo‘ja Inoyatov, G‘ani Zikrillaev, «Qur’oni Karim oyatlari mazmun-ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi» , «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022-yil, 409-bet
3. Saussure F. Cours de linguistique générale (1908–1909). Introduction. In: Cahiers de Ferdinand de Saussure, 1957, no. 15. pp. 3–104.
4. Azizxo‘ja Inoyatov, G‘ani Zikrillaev, «Qur’oni Karim oyatlari mazmun-ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi», «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022.
5. Sayfullayeva R. R., Bobokalonov R. R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmali inson. Globedit, Kshinyov, ISBN: 2023 978-620-0-64878-5
6. Бобокалонов Р.Р. Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихолингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 c. ISBN: 978-620-0-64729-0.
7. Бобокалонов Р. Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 c. ISBN : 978-620-6-15214-9
8. Бобокалонов Р. Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихолингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 c. ISBN: 978-620-6-16018-2.
9. Jacques Jomier, L’Exégèse scientifique du Coran d’après le Cheikh Amin Al-Khouli, MIDEO, 4, 1957, p. 272-274.
10. Bafoevna N. D., & Ikromdjonovna, K. N. (2023). The Main Directions of Theo linguistic Research In Modern Linguistics. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10 (2S), 2127-2136.
11. Нарзулаева Д. Б. (2022). Теолингвистическая лексема религиозного стиля. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 332-338.
12. Narzoullaèva D. B. (2023). Théolinguistique-une tentative de vulgarisation du terme. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 58-63.